“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Biotexnologiya rivojlanishida inson huquqlari himoyasining huquqiy asoslari

Boburjon Xolboyev,
Yangi Namangan tumani prokurorining yordamchisi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
e-mail: boburxolboyev1111@gmail.com

Аннотация. ushbu maqolada biotexnologiya sohasining jadal rivojlanishi jarayonida inson huquqlarini ta’minlash masalalari, biotexnologik tadqiqotlar va tibbiy amaliyotlarda bioetika tamoyillarining ahamiyati, biotexnologik ma’lumotlar bilan ishlashda inson sha’ni, huquqi va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro huquqiy normalar hamda O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunchilik bazasi tahlil qilinib, tavsiyalar berilgan.

Калит сўзлар. biotexnologiya, bioetika tamoyillari, inson huquqlari, xalqaro standartlar.

Аннотация. в статье анализируются вопросы обеспечения прав человека в условиях стремительного развития биотехнологической отрасли, значение биоэтических принципов в биотехнологических исследованиях и медицинской практике, международно-правовые нормы, направленные на защиту достоинства, прав и свобод человека при работе с биотехнологическими данными, а также соответствующая законодательная база Республики Узбекистан, и даются рекомендации.

Ключевые слова. биотехнология, принципы биоэтики, права человека, международные стандарты.

Annotation. This article analyzes the issues of ensuring human rights in the process of rapid development of the biotechnology industry, the importance of bioethical principles in biotechnological research and medical practice, international legal norms aimed at protecting human dignity, rights and freedoms when working with biotechnological data, and the relevant legislative framework of the Republic of Uzbekistan, and provides recommendations.

Keywords. biotechnology, principles of bioethics, human rights, international standards.

Bugungi kunda tibbiyot fanining taraqqiy etishi ushbu sohadagi muammolarni bartaraf etishda ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Tirik insonlardan organ va to‘qimalarni ko‘chirish, inson genlarini o‘zgartirish, klonlash kabi tushunchalar ishlatish oddiy hol bo‘lgan biotexnologiyalar davri kirib keldi. Darhaqiqat, biotexnologiyalarning sohasining rivojlanishi bilan odamlar necha asrlardan buyon davosi topilmay kelgan turli-xil kasalliklarga yechim topildi. Biotexnologiya — bu tirik organizmlar, ularning hujayralari yoki biologik tizimlaridan foydalangan holda foydali mahsulotlar olish, yangi texnologiyalar yaratish yoki mavjud jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy soha hisoblanadi (Gupta, 2020). So‘nggi yillarda biotexnologiya sohasining jadal rivojlanishi nafaqat ilmiy va texnik taraqqiyotning, balki inson huquqlari bilan bog‘liq yangi masalalarning paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘lmoqda. Albatta, biotexnologiyalar inson salomatligini mustahkamlash, hayotini saqlab qolish uchun xizmat qilsa-da, ushbu jarayonlarda inson huquqlarini ta’minlamaslik o‘zining salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi ham sir emas. Genetik muhandislik, klonlash, reproduktiv texnologiyalar, organ transplantatsiyasi va boshqa biotibbiy yo‘nalishlar inson hayotiga bevosita ta’sir qiladigan sohalardir. Shu sababli, biotexnologik tadqiqotlar va ularning amaliy natijalari inson sha’ni, qadri-qimmati va huquqlariga hurmat asosida amalga oshirilishi zarur. Biotexnologiya inson hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli, u inson huquqlarining fundamental tamoyillarini — hayot huquqi, inson sha’ni himoya qilish, sog‘lom hayot huquqini ta’minlash kabi aspektlarni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, genetik axborot bilan ishlashda shaxsiy hayot daxlsizligi, rozilik tamoyili va axborot maxfiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Biotexnologik tadqiqotlarda inson ishtirokini talab qiladigan eksperimentlar faqat uning ongli roziligi bilan amalga oshirilishi lozim. Mazkur sohada inson huquqlari himoyasini ta’minlamaslik biotexnologiya sohasidagi yutuqlar inson qadri-qimmati, salomatligi va hayotiga tahdid soluvchi oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu boisdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning organlari tomonidan xalqaro miqyosda standartlar belgilangan. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil) biotexnologik tadqiqotlarda insonning hayot, sog‘liq va daxlsizlik huquqini himoya qilish zarurligini belgilaydi. Shuningdek, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi pakti (1966-yil) har bir insonning sog‘lom hayot darajasiga ega bo‘lish huquqini kafolatlaydi. Ushbu hujjatlar asosida biotexnologiya sohasida insonning roziligi, axborotga ega bo‘lishi va teng imkoniyatlari ta’minlanadi. Bundan tashqari, Inson huquqlari va biotibbiyot to‘g‘risidagi Konvensiya (Ovidiyo, 1997-yil) biotexnologiya bilan bog‘liq barcha tibbiy amaliyotlarda inson roziligi va biotibbiy etik me’yorlarni majburiy qiladi. Bu konvensiyada inson genetik merosini o‘zgartirish faqat tibbiy zarurat asosida ruxsat etilishi, reproduktiv klonlash qat’iyan man etilishi, har qanday tibbiy aralashuv insonning yozma roziligiga

tayanishi qat’iy belgilangan. Xalqaro miqyosda biotexnologiya sohasidagi inson huquqlari masalasi 1997-yilda UNESCO tomonidan qabul qilingan “Inson genomi va inson huquqlari to‘g‘risidagi umumjahon deklaratsiyasi”da o‘z aksini topgan. Mazkur hujjatda “inson genomi insoniyatning umumiy merosi sifatida e’tirof etilib, uni tijorat maqsadida suiiste’mol qilish taqiqlanadi” deb belgilangan. Shu kabi, O‘zbekiston Respublikasi ham BMTning Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi, UNESCOning Bioetika va inson huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiyasi kabi xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. Yuqorida aytilganidek, zamonaviy biotexnologiyaning rivojlanishi bilan birga, inson huquqlarining buzilish xavfi ham ortib bormoqda. Masalan, genetik tahrirlash texnologiyalarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi inson genetik kodiga zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek, klonlash, transplantatsiya jarayonlarida axborot bazalarining noqonuniy foydalanilishi, tibbiy tajribalarda roziliksiz ishtirok va biotexnologik mahsulotlar xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar bularning barchasi inson sha’ni va daxlsizligi, tug‘ilajak avlodning genetik holati bilan bog‘liq murakkab bioetik muammolarni keltirib chiqaradi. Biotexnologiya faoliyatida inson huquqlarini ta’minlash uchun bir qator chora-tadbirlar belgilash lozim. Birinchidan, sohada huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarur. O‘zbekiston Respublikasida bu yo‘nalishda normativ-huquqiy hujjatlarni uyg‘unlashtirish va xalqaro tajribani o‘rganish katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, mazkur sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish lozim. Xulosa qilib aytganda, biotexnologiya sohasida inson huquqlarining himoyasi zamonaviy huquqshunoslik va bioetikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Ilmiy-texnik taraqqiyot inson manfaatlariga xizmat qilishi, biroq u insonning sha’ni, qadri-qimmati va erkinligini kamsitmasligi zarur. A. Y. Petrosyan fikricha, “Inson biotexnologik tadqiqotlar va amaliyotlarda faqat tajriba ob’yekti sifatida emas, balki o‘z huquqlari, sha’ni va daxlsizligiga ega bo‘lgan axloqiy-huquqiy sub’yekt sifatida qaralishi zarur. Chunki biotexnologiyaning rivoji inson manfaatlariga bo‘ysundurilgan holda amalga oshirilishi lozim”. Shu bois, biotexnologik faoliyatda huquqiy, axloqiy va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish inson huquqlarini samarali himoya qilishning eng muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 25.11.2020 йилдаги «Биотехнологияларни ривожлантириш ва мамлакатнинг биологик хавфсизлигини таъминлаш тизимини такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4899-сон қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.12.2024 й., 06/24/230/1096-сон

2. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг “Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси” // [Электрон манба]. URL: https://lex.uz/docs/7338189

3. Council of Europe. Convention on Human Rights and Biomedicine (Oviedo Convention) (1997) [Электрон манба]. URL: https://www.worldlii.org/ int/other/COETSER/1997

4. Universal Declaration on the Human Genome and Human Rights [Электрон манба]. https://www.unesco.org/en/ethics-science-technology/human-genome-and-human-rights

5. Universal Declaration on the Human Genome and Human Rights [Электрон манба]. URL: https://www.un.org/en/development

6. Gupta, V. (2020). An Introduction to Biotechnology. Frontiers in Life Science, https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7119977/

7. Петросян, В.Ю. Биоэтика и право: человек как субъект биомедицинских отношений. — Москва: Юрайт, 2018.

8. А.Каримов «Биоэтика ва ҳуқуқ: Инсон геноми ва ҳуқуқлари муаммолари». — Тошкент: ТДЮУ нашриёти, 2022.